O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

(2026-yil 15-sentyabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

(2026-yil 15-sentyabr)

SAMARQAND – 2026

UO'K: 657.6(063)
Sh64
KBK: 65.053ya43

Auditni xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalari */ Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2026-yil 15-sentyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2026. – 672 bet.*

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
U.A. Shirinov – PhD, Dotsent,
X.O'. Po'latov – katta o'qituvchi.

Nashr uchun mas'ullar:
K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,
M.Q.Pardaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor.

Mazkur to'plam xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati auditini xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, amaliy, tashkiliy va metodologik masalalariga bag'ishlangan. To'plamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini auditorlik tahlilidan o'tkazish, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga auditorlik bahosini berish uslubiyati, buxgalteriya hisobi va hisobotini milliy hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari o'rin olgan. Auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o'tkazishning nazariy hamda metodologik asoslari, uning iqtisodiyot, marketing, menejment, bank ishi va moliya sohalarida qo'llanilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. To'plamda keltirilgan ilmiy maqolalar va tadqiqot natijalari audit amaliyotini xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobotining sifatini oshirish, auditorlik faoliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy iqtisodiyot uchun malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavrlar, shuningdek korxonalar rahbarlari, buxgalterlar, auditorlarlar va boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-5433-9-5

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.

Tannarx buxgalteriya hisobining nazariy asoslari va moliyaviy menejmentdagi o‘rni

Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna
SamISI doktaranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tannarx buxgalteriya hisobining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimidagi o‘rni tadqiq etilgan. Tannarx buxgalteriya hisobining faqat ishlab chiqarish tannarxini aniqlashga xizmat qiluvchi hisob tizimi emas, balki xarajatlarni shakllantirish, mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan hisob sohasi sifatidagi xususiyatlari asoslangan. Xalqaro amaliyotda “Cost Accounting” tushunchasining mazmuni, tannarxni hisoblashning zamonaviy tizimlari hamda xalqaro standartlar talablari tahlil qilingan. Shuningdek, tannarx buxgalteriya hisobining boshqaruv hisobi bilan o‘zaro bog‘liqligi va farqli jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishida “Tannarx buxgalteriya hisobi” fanini alohida fan sifatida shakllantirishning nazariy va amaliy zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: tannarx, tannarx buxgalteriya hisobi, Cost Accounting, ishlab chiqarish xarajatlari, kalkulyatsiya, kosting tizimi, mahsulot tannarxi, xarajatlarni boshqarish, boshqaruv hisobi, moliyaviy menejment.

Xalqaro amaliyotda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlash **“Cost Accounting”** tushunchasi orqali ifodalanadi. Zamonaviy Cost Accounting doirasida xarajatlarni yig‘ish, guruhlash, mahsulot va xizmatlar tannarxiga taqsimlash, tannarxni kalkulyatsiya qilish, xarajatlar og‘ishini aniqlash va xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlardan boshqaruv maqsadlarida foydalanish masalalari qamrab olinadi. Hozirgi xalqaro adabiyotlarda ham Cost Accounting alohida va rivojlanib borayotgan professional bilim sohasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, 2026-yilda Pearson tomonidan Horngren’s Cost Accounting darsligining 18-nashri e’lon qilingan bo‘lib, bu sohaning zamonaviy ta’lim va amaliyotdagi davomiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tannarx buxgalteriya hisobi nafaqat ishlab chiqarish tannarxini aniqlash tizimi, balki menejmentning strategik qarorlar qabul qilishiga xizmat qiluvchi axborot bazasidir**.** U raqobatbardosh muhitda korxonaga iqtisodiy barqarorlik, uzluksiz rivojlanish, xarajatlarni optimallashtirish va foydani oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, iqtisodiy inqiroz sharoitida ham korxona barqarorligini mustahkamlaydi. Tannarx buxgalteriya hisobi moliyaviy menejmentda tutgan o‘rnini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tannarx buxgalteriya hisobining moliyaviy menejmentda tutgan o‘rni

Tannarx buxgalteriya hisobi bu ishlab chiqarish jarayonidagi barcha xarajatlarni tizimli ravishda qayd etish, ularni mahsulot yoki xizmatlarga taqsimlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etuvchi hisob tizimidir. Nazariy asoslarida tannarx buxgalteriya hisobi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni nazorat qilish, mahsulot tannarxini aniqlash va moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirishga qaratilgan. Zamonaviy talqinlarda tannarx buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki strategik boshqaruv, raqobatbardosh narx belgilash va korxona resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha, mahsulot tannarxi, uning shakllanishi, hisoblash tartibi, zamonaviy kosting tizimlari va ularning qo‘llanilishi, tannarxni qisqartirish va optimallashtirish masalalarini o‘rganadigan buxgalteriya hisobining alohida sohasi “Tannarx buxgalteriya hisobi” bo‘lishini taqozo qilmoqda. Dunyodagi nufuzli universitetlarida “Tannarx buxgalteriya hisobi” alohida fan tarmog‘i sifatida o‘qitilib kelmoqda. Shu bois, bizda ham oliy ta’lim muassasalari “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishida “Tannarx Buxgalteriya Hisobini” kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu fan tarmog‘ining ingliz tilidagi nomi “Cost Accounting” deb ataladi. Biz sohadagi nufuzli darsliklarni o‘rganish asosida ushbu

fan tarmog‘ida qamrab oladigan masalalar qatoriga quyidagi masalalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1.7-jadval)

1.7-jadval

“Tannarx buxgalteriya hisobining masalalari”[168]

№	Bo‘lim nomi	Tarkibiy mavzular (Inglizcha)	Tarkibiy mavzular (O‘zbekcha)
I	**Nazariy va konseptual asoslar**	Fundamental Cost Accounting Concepts; Cost Accounting Environment; Cost Flows and Cost Concepts; Cost Behavior; An Introduction to Cost Terms and Purposes	Tannarx buxgalteriya hisobining fundamental konsepsiyalari; Tannarx buxgalteriya hisobi muhiti; Tannarx oqimi va konsepsiyalari; Tannarx tabiati; Tannarx atamalari va maqsadlari
II	**Tannarx elementlari va ishlab chiqarish xarajatlari hisobi**	Cost Element Accounting; Accounting for Materials; Accounting for Labor Costs; Accounting for Manufacturing Overhead	Tannarx elementlari hisobi; Materiallar hisobi; Mehnat xarajatlari hisobi; Ishlab chiqarish ustama xarajatlari hisobi
III	**Tannarxni shakllantirish va costing usullari**	Cost Allocation; Product Costing; Job Order Costing; Process Costing; Standard Costing	Tannarxni taqsimlash; Mahsulot tannarxini hisoblash; Buyurtmali usul; Jarayonli usul; Standart tannarx usuli
IV	**Maxsus tannarx obyektlari va zamonaviy usullar**	Cost of Joint Products and By-Products; Spoilage, Rework, and Scrap; Activity-Based Costing; Inventory Management, Just-in-Time (JIT), and Simplified Costing Methods	Qo‘shma va ikkilamchi mahsulotlar tannarxi; Nuqsonli mahsulotlar va chiqindilar hisobi; Faoliyatga asoslangan tannarx (ABC); Zaxiralar boshqaruvi, JIT va soddalashtirilgan usullar
V	**Rejalashtirish, nazorat va boshqaruv qarorlari**	Flexible Budgets, Direct-Cost Variances, and Management Control; Use of Cost Information in Management; Relevant Costs and Alternative Choice Decisions;	Moslashuvchan byudjetlar va og‘ishlar tahlili; Tannarx ma’lumotlaridan boshqaruvda foydalanish; Relevant tannarx va muqobil qarorlar; Marjinal

[168] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

		Contribution Approach and Variable Costing; Absorption Costing; Cost-Volume-Profit (CVP) Analysis; Pricing Decisions and Cost Management; Tools for Managerial Analysis	yondashuv va o‘zgaruvchan tannarx; To‘liq tannarx usuli; THF (CVP) tahlili; Narx belgilash va tannarx menejmenti; Boshqaruv tahlili vositalari

Tannarx buxgalteriya hisobi fanining tarkibini chuqur tahlil qilish hamda uni amaliyotga samarali joriy etish nuqtai nazaridan mazkur yo‘nalishda tizimli takomillashtirish ishlarini olib borish zarur deb hisoblaymiz. Avvalo, tannarx buxgalteriya hisobining korxona boshqaruv tizimidagi o‘rni va iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda ochib berish muhimdir. Chunki tannarx buxgalteriya hisobi nafaqat mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxini aniqlash vositasi, balki xarajatlarni boshqarish, rentabellikni baholash hamda strategik va operativ qarorlar qabul qilishda axborot ta’minotini shakllantiruvchi muhim boshqaruv instrumentidir.Shu bilan birga, tannarx buxgalteriya hisobining asosiy obyektlarini aniq belgilab olish zarur. Xarajatlar, tannarx elementlari, costing obyektlari, xarajat va mas’uliyat markazlari, mahsulot turlari hamda ishlab chiqarish jarayonlari uning asosiy hisob obyektlari sifatida metodologik jihatdan asoslanishi lozim. Bu esa hisob tizimining yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tannarx buxgalteriya hisobini faqat ishlab chiqarish xarajatlarini qayd etish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish bilan cheklash uning zamonaviy iqtisodiy mazmunini to‘liq ifodalamaydi.Tannarx buxgalteriya hisobi xarajatlarni shakllantirish, ularni tizimlashtirish, mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqlash, xarajatlarni taqsimlash, tannarx ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va xarajatlarni optimallashtirish uchun zarur axborotni shakllantiruvchi kompleks hisob tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.Xalqaro amaliyotda Cost Accountingning rivojlanishi ham ushbu yo‘nalishning alohida bilim va amaliyot sohasi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Xususan, zamonaviy cost-accounting yondashuvlari korxonaning xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish, xarajatlarni nazorat qilish va strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilmoqda. Shu bilan birga, tannarx buxgalteriya hisobini boshqaruv hisobi bilan to‘liq tenglashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki tannarx buxgalteriya hisobining markazida **xarajatlarni aniqlash, hisobga olish, taqsimlash va mahsulot yoki xizmat tannarxini shakllantirish** masalalari tursa, boshqaruv hisobi ushbu va boshqa axborotlardan foydalanib rejalashtirish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlashning kengroq doirasini qamrab oladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida **“Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi doirasida “Tannarx buxgalteriya hisobi (Cost Accounting)” fanini alohida fan sifatida joriy etish** maqsadga muvofiq. Mazkur fan dasturida ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirish, ularni iqtisodiy mazmuni va mahsulot tannarxiga kiritilishiga ko‘ra tasniflash, xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash hamda zamonaviy kosting tizimlarini qo‘llash masalalarini kompleks yoritish lozim. Bu

orqali talabalarda xarajatlarni faqat hisobga olish emas, balki ularning mahsulot tannarxi, rentabellik va korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini baholash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.Bundan tashqari tannarx hisobini xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish maqsadida **IAS 2 “Inventories”** talablaridan foydalanish hamda milliy buxgalteriya hisobi tizimida mahsulot tannarxini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish lozim. Bunda xomashyo va materiallar, bevosita mehnat xarajatlari, o‘zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritish, ularni ishlab chiqarish obyektlari o‘rtasida iqtisodiy asoslangan mezonlar asosida taqsimlash hamda tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot tannarxini haqqoniy baholash mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratish zarur.

Demak, tannarx buxgalteriya hisobining o‘ziga xos obyekti, predmeti, usullari va funksional vazifalarini aniqlash uning buxgalteriya hisobining mustaqil ixtisoslashgan sohasi sifatidagi nazariy maqomini asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Datar S.M., Rajan M.V. **Horngren’s Cost Accounting.** 18th ed., Global Edition. Pearson, 2026. – **1023 p.**

2.Drury C., Tayles M. **Management and Cost Accounting.** 11th ed. Andover: Cengage Learning, 2021. – **876 p.**

3.Garrison R.H., Noreen E.W., Brewer P.C. **Managerial Accounting.** 17th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2021.

4.Kaplan R.S., Atkinson A.A. **Advanced Management Accounting.** 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1998.

5.**Tashnazarov S.N.** *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari*: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – **584 b.**

6.**Xolbekov R.O.** *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*: darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – **200 b.**

7.**IFRS Foundation.** *IAS 2 Inventories.* – London: IFRS Foundation. – **15–16-paragraflar.**

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING AMALIY MUAMMOLARI, ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliyaviy tahlil kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning amaliy muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Xomashyo xarajatlarini hisobga olish, bilvosita xarajatlarni taqsimlash, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash hamda energiya xarajatlarini nazorat qilish masalalari yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida ABC Costing, Process Costing, Standard Costing va ERP tizimlarini qo‘llashning

	Shoximovna	HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	
126.	**Turmanqulov Norpo‘lat Sa‘dullayevich**	A MECHANISM FOR THE EARLY DETECTION AND REDUCTION OF FRAUD RISKS IN THE INTERNAL AUDIT OF NON-STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	**571**
127.	**Yuldasheva Munira Shoximovna**	DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.	**575**
128.	**Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li**	O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	**579**
129.	**A.Sh.Abduvaytov**	XIZMATLAR SOHASIDA AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	**584**
130.	**Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna**	Tannarx buxgalteriya hisobining nazariy asoslari va moliyaviy menejmentdagi o‘rni	**589**
131.	**Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich**	TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING AMALIY MUAMMOLARI, ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	**593**
132.	**Menglikulov Baxtiyor Yusupovich**	BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	**599**
133.	**Самиддин Ташназаров**	БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	**606**
134.	**Allayorov Hamdam Iris o‘g‘li**	HOZIRGI ZAMON LOGISTIKASINING MARKETING SAMARADORLIGIGA TA’SIRI	**611**
135.	**Toshnazarov Shaxzodjon Samiddinovich**	MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR BO‘YICHA TAKOMILLASHTIRISH	**615**
136.	**Babaev Farrux Mansurovich**	KIChIK BIZNES SUB’EKTLARIGA TATBIQ ETILAYOTGAN SODDALAShTIRILGAN SOLIQ REJIMINING SAMARADORLIGI	**622**
137.	**O.A.Abdug‘aniev**	SAVDO XIZMATLARI	**625**

AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

(2026-yil 15-sentyabr)

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN: 978-9910-5433-9-5

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© “STAP-SEL” MChJ. nashriyoti,
Samarqand-2026

2434

2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 42.00
Buyurtma № 0168A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.



ISBN: 978-9910-5433-9-5